

BANKLARARO RAQOBAT MUHITINING BANKLAR DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI

THE ROLE OF THE INTERBANK COMPETITION ENVIRONMENT IN ENSURING THE STABILITY OF BANKS' DEPOSIT BASE

**¹Jo'rayev Isroil
Ibroximovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Xalqaro moliya"
kafedrası dotsenti. **ORCID:** 0000-0002-5607-0089

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada banklararo raqobat muhiti va uning tijorat banklari depozit bazasi barqarorligini ta'minlashdagi o'rni tahlil etilgan. Unda raqobatning intensivlashuvi sharoitida tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, likvidlilik riskini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish omillari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda raqobat muhitining zamonaviy xususiyatlari, xususan, raqamli bank xizmatlari, innovatsion "ma'qullashtirilgan depozit" mahsulotlari va mijozlar bilan individual aloqalar tizimining shakllanishi tahlil qilingan.

Eng. - This article analyzes the interbank competitive environment and its role in ensuring the stability of the deposit base of commercial banks. It scientifically highlights the factors that contribute to strengthening the resource base of commercial banks, reducing liquidity risk, and increasing financial stability in the face of intensifying competition. The study analyzes the modern features of the competitive environment, in particular, digital banking services, innovative "approved deposit" products, and the formation of a system of individual customer relations.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ banklararo raqobat, tijorat banklari, depozit bazasi, moliyaviy barqarorlik, raqamli bank xizmatlari, likvidlilik riski, resurs bazasi, depozit siyosati, innovatsion depozit mahsulotlari, ma'qullashtirilgan depozit, mijozlar ishonchi, raqamli transformatsiya, raqobat strategiyasi, ekonometrik tahlil, xalqaro bank amaliyoti.

❖ interbank competition, commercial banks, deposit base, financial stability, digital banking services, liquidity risk, resource base, deposit policy, innovative deposit products, approved deposit, customer confidence, digital transformation, competitive strategy, econometric analysis, international banking practice.

Kirish.

Jahon mamlakatlari markaziy banklari, Jahon banki hamda moliyaviy me'yorlar va risklarni boshqarish sohasida yetakchi xalqaro tashkilotlardan hisoblangan Bazel qo'mitasi so'nggi yillarda moliya bozorida yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarni yumshatish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash

borasida tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, mazkur tadqiqotlarda banklarning likvidlik riskini kamaytirish, kapital yetarliligini ta'minlash, depozit bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bazel qo'mitasi tomonidan yangilangan "Basel III Endgame" mezonlari orqali banklarning zaxiralar siyosati, yo'qotishlarga nisbatan bardoshlilik va

risklarga nisbatan muvozanatli munosabatini ta'minlash ko'zda tutilgan. Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlar moliya sektorini institutsional isloh qilishda, raqamli moliya infratuzilmasini rivojlantirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga e'tibor qaratmoqda. Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari depozit operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimini isloh qilish jarayonida moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga qaratilgan bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida depozit siyosatini diversifikatsiya qilish, raqamli platforma imkoniyatlaridan foydalangan holda innovatsion depozit turlarini joriy etish va uzoq muddatli depozitlarni jalb qilishni rag'batlantirish kabi strategik yo'nalishlarni amalga oshirishlari zarur. O'zbekiston bank tizimi xalqaro tajribani inobatga olgan holda depozit operatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yechimlarni joriy etishga asosiy e'tibor qaratishi lozim. Mazkur holatlar tijorat banklarining depozit operatsiyalarini takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Jamiyat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan qaralganda, raqobat milliy iqtisodiyotning samaradorlik darajasini oshirish, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, resurslar taqsimotini optimallashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur jarayonda raqobat institutlarini rivojlantirish, bozorga kirish to'siqlarini bartaraf etish va iqtisodiy erkinlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqobatning tizimli va samarali faoliyat ko'rsatishi uchun davlat siyosatining to'g'ri

yo'naltirilishi, ya'ni antiinflyatsion choralar, monopoliyaga qarshi siyosat va bozorni liberallashtirish islohotlari ham zarur hisoblanadi.

Jon Rolzning adolat nazariyasiga ko'ra, "raqobat faqat iqtisodiy foyda bilan cheklanmasligi, balki ijtimoiy tenglik va adolat prinsiplari asosida rivojlanishi lozim"[1]. Shu ma'noda, banklararo raqobatning inson manfaatlariga mos tarzda yo'naltirilishi muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, iqtisodiy adabiyotlarda "raqobat" tushunchasi ikki jihatdan ko'rib chiqiladi:

❖ keng ma'noda bozor iqtisodiyoti subyektlarining tovarlarni ishlab chiqarish, sotib olish va sotish jarayonida, shuningdek, kapital qo'yilmalari sohasidagi o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan bozor mexanizmining elementi sifatida.

❖ tor ma'noda - tarmoq ichidagi raqobat, turli sohalardagi alohida firmalar yoki alohida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi biznesning yanada qulay sharoitlari uchun, maksimal foyda olish uchun kurash sifatida.

"Raqobat" tushunchasi klassik va neoklassik iqtisodiyot nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, bugungi kunda ham ko'pgina iqtisodchilarning diqqatini tortib kelmoqda va ular tomonidan turlicha talqin etilmoqda.

Shotlandiyalik faylasuf va iqtisodchisi olim Adam Smit o'zining 1776-yilda yaratgan "An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations" asarida erkin bozor tushunchasi va raqobatning iqtisodiyotdagi roli xususida o'z qarashlarini ilgari surgan. Uning fikricha, foyda olmoqchi bo'lgan tadbirkorlar o'rtasidagi raqobat bozorning samarali ishlashiga yordam beradi.

Adam Smit o'z qarashlarida "ko'rinmas qo'l" nazariyasini ilgari surdi, unga ko'ra shaxsiy manfaatlar uchun individual xohishlar ongli ravishda jamiyat farovonligiga olib keladi. Uning fikricha "raqobat tadbirkorlarni innovasiyalarga, narxlarni pasaytirishga, tovar

va xizmatlar sifatini oshirishga undaydi" [2]. Biroq, Adam Smit bozorda barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlar yaratilmasligini hamda tashqi ta'sirlarni e'tiborga olmaydi. Shuningdek, bozorda monopoliyalarning mavjud bo'lishi, konsentratsiyalashuvning ortib ketishi va ma'lumotlarning yetishmasligi kabi omillar ushbu olimning e'tiboridan chetda qoldiriladi. Fikrimizcha, zamonaviy iqtisodiy qarashlar raqobatni samarali tashkil etilishida davlatning o'rni yuqori ekanligini ta'kidlashadi. Shu sababli davlat monopoliyalarga qarshi kurash, ishonchli va yetarli axborot ta'minoti, yirik ishtirokchilarning yuqori darajadagi konsentratsiyalashuvini tartibga solishi lozim bo'ladi.

S.G. Svetunkov tomonidan keltirilgan tarifga e'tibor beradigan bo'lsak, monopoliyadan holi sharoit ko'zda tutilgan. Bizning fikrimizcha monopoliyadan holi sharoitni monopoliya cheklangan sharoit deb qabul qilish zarur. Chunki monopoliya bozorda raqobatning butunlay yo'q bo'lishini bildirmaydi. Shu bilan birga barcha subyektlar uchun eng qulay sharoit, eng yuqori daromadga qaratilmasligi kerak, chunki iste'molchi tovar va xizmatlar uchun ma'lum qiymatni belgilaydi.

A.Yu. Yudanovning fikricha raqobat-iste'molchilarning to'lovga qodir cheklangan talabi uchun bellashuvdir [3]. Muallifning fikricha bu ta'rif bir qator muhim jihatlarga ega. Birinchidan, gap bozor raqobati haqida ketmoqda, ya'ni raqobat bozordagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faqatgina o'z tovar va xizmatlarini iste'molchilar uchun yo'naltirish jarayonida sodir bo'ladigan bellashuvdir. Ikkinchidan, raqobat iste'molchilarning to'lovga qodir cheklangan extiyoji uchun olib boriladi, agarda iste'molchi talabi biror bir subyekt tovar yoki xizmati bilan qondirilsa, qolganlari o'z-o'zidan taklif qilish imkoniyatidan mahrum bo'lishadi. Uchinchidan, raqobat faqat bozorning kirib borish mumkin bo'lgan segmentida rivojlanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim F.I. Mirzayev "banklararo raqobat deb, odatda, tijorat banklari o'rtasida resurslar jalb qilish va mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish borasida yuzaga keladigan raqobat tushuniladi" [4] deb izohlaydi.

F.I. Mirzayevning fikriga qo'shilgan holda, banklararo raqobat deganda depozitlar, kreditlar va boshqa moliyaviy xizmatlar uchun bir bozorda faoliyat yurituvchi banklar o'rtasidagi raqobat va uning dinamikasi tushuniladi.

M.I. Arifxodjayevaning fikriga ko'ra, "banklararo raqobat avvalambor mijoz uchun kurashdan iborat bo'ladi. Qaysi bankning mijozlari ko'p va obro'li bo'lsa o'sha bankning o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yuqoridir" [5]. Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida raqobat nafaqat mijozlarni ko'proq jalb qilish, balki resurslar, kreditlar va boshqa moliyaviy mablag'larga bo'lgan kurash sharoitida ham yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Yana bir iqtisodchi olim S.Sh. Yuldasheva "Bank raqobati – moliya bozorining ishtirokchilari, xususan, kredit tashkilotlari o'rtasidagi kreditlar, depozitlar va boshqa bank mahsulotlarini sotish uchun kurash sifatida qaralishi hamda doimiy tadqiqotlar o'tkazib borilishi kerak bo'lgan jarayon sifatida baholanishi lozim" [6] deya ta'kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi tahlil va sintez, modellashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash, hamda taqqoslama tahlil usullarini o'z ichiga oladi. Tahlil va sintez banklararo raqobat muhiti va tijorat banklari depozit bazasi barqarorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, u bir nechta zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqobat jamiyat uchun zarur tovar va xizmatlarning bozor hamda xarid narxini belgilaydi. Raqobat ta'sirida tovar va

xizmatlarning individual qiymati shakllanadi, daromadlar hajmining mehnat sarfi bo'yicha differensasiyasi yuzaga keladi. Tarmoqlararo jihatdan raqobat foydaning o'rtacha me'yorini yuzaga keltiradi, jamiyat ehtiyoji uchun eng ahamiyatli va zarur bo'lgan tarmoqlarga kapital oqimini rag'batlantiradi. Shubhasiz, raqobat bozor uchun xizmat qiladi: qachon, qanday, qancha tovar va xizmatlarni taklif qilish va ko'rsatishni belgilaydi [7].

Banklar o'rtasidagi raqobat darajasini aniqlashda turli indeks va koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Ular bozor konsentratsiyasini baholash, banklar faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va moliyaviy xizmatlar bozoridagi raqobat muhitini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu indeks va koeffitsiyentlar banklar o'rtasidagi raqobat darajasini aniqlashda muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. To'g'ri tahlil va baholash orqali bank tizimining


samaradorligini oshirish, mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va umumiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shish mumkin. Shuningdek, mazkur ko'rsatkichlar asosida banklar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va bozordagi monopolialashuvning oldini olish imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi kunda jahon bank amaliyotida eng ko'p va muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan ko'rsatkichlardan biri HHI (Herfindal Hirshman indeksi) bo'lib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha banklararo raqobat darajasi quyidagi mezonlarga ko'ra baholanadi.

raqobat darajasi past (HHI 2500-10000 gacha);

raqobat darajasi o'rtacha (HHI 1500-2500);

raqobat darajasi yuqori (HHI 1500 dan past).



1-rasm. O'zbekiston bank tizimining kredit, aktiv va depozit bozoridagi konsentratsiya darajasi [8]


Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda mamlaatimiz bank tizimidagi islohotlar natijasida bank tizimida raqobat muhiti ijobiy tendensiyani namoyon qilmoqda. Masalan, banklarning kreditlari bo'yicha HHI indeksi 1709 dan 923 birlikga, bank tizimi aktivlari 1520 dan 804 birlikga, bank depozitlari 919 dan 641

birlikgacha pasaygan. Tahlil qilingan davrda bank tizimi aktivlari, kreditlar va depozitlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi ko'rsatkichi raqobat darajasi oshib borayotganini ko'rsatmoqda. Bunga asosan bank tizimida davlat ulushini kamaytirish, bank tizimiga xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar raqobat muhitini

yaxshilash va bank sektorini yanada rivojlantirishga xizmat qilayotganidan dalolat bermoqda.

Banklararo raqobat muhiti turli xil omillar ta'sirida rivojlanadi va takomillashib boradi. Ushbu omillar banklarning o'z strategiyalarini to'g'ri shakllantirish,

bozordagi mavqeini saqlab qolish va mustahkamlash, xizmatlar sifati va diversifikatsiyasiga e'tibor qaratish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kabi muhim vazifalarni hal etish etishlari lozim bo'ladi.



2-rasm. Banklararo raqobat muhitiga ta'sir etuvchi omillar [9]

Banklararo raqobat darajasiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ularning o'zaro ta'sir darajasi banklarning raqobat strategiyalarini samarali ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar mazkur omillarni hisobga olgan holda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga va o'z mijozlari ishonchini yanada mustahkamlash uchun innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishga intilishlari lozim bo'ladi.

Banklararo raqobat ko'pqirrali iqtisodiy kategoriya bo'lib, boshqa bozorlardagi raqobat muhiti shakllanishidan tubdan farq qiladi.

Banklararo raqobatning xususiyatlari bir qator ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlangan bo'lib, uning iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Ilmiy manbalarga ko'ra, banklararo raqobatning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

❖ banklararo raqobat tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi raqobatga nisbatan kechroq shakllangan bo'lsa-da, u barqaror sur'atlarda rivojlanmoqda. Bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi ushbu jarayonni yanada tezlashtirmoqda;

❖ banklararo raqobat bozorida tijorat banklari bilan bir qatorda bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlar, shu jumladan mikrokredit tashkilotlari, investitsion fondlar va fintex kompaniyalari ham ishtirok etmoqda. Bu esa, bozorda yangi tendensiyalar va xizmat turlarining paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda;

❖ banklararo bozorda banklar turli holatlarda ishlashadi - ular ayrim holatda

sotuvchi, ayrim holatlarda esa xaridor sifatida ishtirok etadilar;

❖ bank sohasining har bir yoʻnalishi, jumladan depozitlarni jalb qilish, kreditlash, investisiya faoliyati va toʻlov tizimlarining oʻziga xos xususiyatlari mavjud boʻlib, ular raqobatning intensiv rivojlanishini taʼminlash imkonini beradi;

❖ bank xizmatlari bozorida raqobatni cheklash birinchi navbatda xizmat koʻrsatish sifati, reklama strategiyalari va mijozlar bilan munosabatlar jarayonlarida qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Banklar uchun marketing va xizmat koʻrsatishning zamonaviy usullarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega;

❖ bank xizmatlari bozori koʻp hollarda oligopol tabiatga ega boʻlib, unda yirik moliya va kredit institutlari bozor siyosatini shakllantirishda ustun mavqega ega boʻlishadi. Bu esa kichik banklar va yangi bozor ishtirokchilari uchun qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Oʻzbekistonda banklararo raqobatni qoʻllab-quvvatlash va sogʻlom bozor muhitini shakllantirish maqsadida bir qator huquqiy va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ushbu huquqiy asoslar banklar oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini yaratish, moliyaviy xizmatlarning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

1-jadval

Mamlakatimiz tijorat banklarining jismoniy shaxslar depozitlarini jalb qilishdagi bozor ulushi dinamikasi [10] (yil oxiriga, foizda)

Nº	Koʻrsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
	Bank tizimi	100	100	100	100	100
	Davlat ulushi mavjud tijorat banklari	64,9	61,7	49,7	43,5	43,5
1	Milliy bank	16,2	14,7	12,8	11,7	10,3
2	Sanoatqurilishbank	7,7	8,9	6,5	5,1	5,8
3	Asaka bank	5,5	6,0	7,3	8,2	7,7
4	Agrobank	9,9	10,1	4,3	4,5	5,8
5	Xalq banki	6,6	5,7	4,5	4,2	4,1
	TOP-5 banklar	45,9	45,4	35,4	33,7	33,7
	Davlat ulushi mavjud boshqa banklar	19	16,3	14,3	9,8	9,8
	Davlat ulushi mavjud boʻlmagan banklar	35,1	38,3	50,3	56,5	56,5
1	Kapitalbank	10,5	9,2	18,3	18,5	18,0
2	Hamkorbank	6,7	5,8	5,3	5,1	5,3
3	Ipak Yoʻli bank	3,0	2,9	3,8	3,2	3,6
4	Oriyent Finans bank	1,7	4,6	3,4	3,5	2,9
5	Infinbank	4,4	1,4	4,3	4,4	3,7
	TOP-5 banklar	26,3	23,9	35,1	34,7	33,5
	Davlat ulushi mavjud boʻlmagan boshqa banklar	8,8	14,4	15,2	21,8	23

Soʻnggi besh yilda jismoniy shaxslarning depozit mablagʻlarini jalb qilish sohasida Oʻzbekiston tijorat banklari oʻrtasidagi raqobat muhiti sezilarli darajada kuchaygan. Davlat ulushiga ega banklarning umumiy bozordagi ishtiroki yildan-yilga pasayib borgan boʻlsa, xususiy tijorat banklari, ayniqsa raqamli

texnologiyalarni joriy etishga eʼtibor qaratgan tijorat banklari oʻz ulushini barqaror tarzda kengaytirayotgani kuzatilmoqda.

2020-yilda jismoniy shaxslar depozitlari boʻyicha davlat banklarining bozor ulushi 64,9 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 43,5 foizgacha pasaygan. Bu esa,

moliyaviy sektorda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni rag'batlantirish siyosatining amaldagi natijasini aks ettiradi. Xususan, Milliy bank, O'z sanoatqurilishbank, Asaka bank, Agrobank va Xalq banki kabi yirik davlat banklarining ulushi umumiy holda 2020-yilda 45,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 33,7 foizgacha kamaydi.

Shu bilan birga, xususiy kapital ishtirokidagi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning kengayishi, raqobatbardosh foiz siyosatlari va raqamli texnologiyalar orqali omonat ochish imkoniyatlarining yaratilishi hisobiga ularning bozordagi ishtiroki 35,1 foizdan 56,5 foizgacha oshgan. Jumladan, Kapitalbankning ulushi 2020-yilda 10,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda

18 foizga yetgani xususiy sektordagi o'sish tendensiyasini yaqqol tasdiqlaydi. Hamkorbank, Ipak Yo'li bank, Oriyent Finans bank va Infinbank singari moliyaviy muassasalar ham o'z ulushlarini sezilarli darajada kengaytirgan.

Ayni paytda, xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan boshqa banklarning ham bozordagi umumiy ulushi 2020-yildagi 8,8 foizdan 2024-yilda 23 foizgacha ortganligi davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar uchun bozor imkoniyatlarining kengayayotganligini anglatadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, jismoniy shaxslar depozitlarini jalb qilish bo'yicha xususiy sektor ishtirokidagi banklar muvaffaqiyatli biznes modellar orqali faol strategiyalarni amalga oshirmoqda.

2-jadval

Mamlakatimiz tijorat banklarining yuridik shaxslar depozitlarini jalb qilishdagi bozor ulushi dinamikasi [10] (yil oxiriga, foizda)

Nº	Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
	Bank tizimi	100	100	100	100	100
	Davlat ulushi mavjud tijorat banklari	74,0	68,3	67,8	55,9	54,3
1	Milliy bank	14,6	14,0	19,6	14,7	13,0
2	Sanoatqurilishbank	10,7	7,8	7,0	6,0	7,3
3	Asaka bank	9,4	7,1	5,2	5,4	5,4
4	Agrobank	7,3	6,8	7,6	7,4	4,7
5	Xalq banki	9,6	8,0	7,0	8,6	10,0
	TOP-5 banklar	51,6	43,7	46,4	42,1	40,4
	Davlat ulushi mavjud boshqa banklar	22,4	24,6	21,4	13,8	13,9
	Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar	26,0	31,7	32,2	44,1	45,7
6	Kapitalbank	3,6	8,2	8,2	9,1	7,8
7	Hamkorbank	1,9	1,9	2,3	2,3	2,7
8	Ipak Yo'li bank	2,4	2,7	2,7	3,4	4,0
9	Oriyent Finans bank	2,5	2,1	3,1	3,7	4,0
10	Infinbank	2,2	2,5	2,0	2,3	2,3
	TOP-5 banklar	12,6	17,4	18,3	20,8	20,8
	Davlat ulushi mavjud bo'lmagan boshqa banklar	13,4	14,3	13,9	23,3	24,9

Tahlil qilingan 2020-2024-yillar davomida yuridik shaxslarning pul mablag'larini depozitlarga jalb qilish bo'yicha

mamlakatimiz tijorat banklari o'rtasidagi raqobat darajasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, davlat ulushi mavjud tijorat

banklarining bozordagi ulushining doimiy pasayib borayotganligi e'tiborga loyiq. Agar 2020-yilda ushbu turdagi banklarning ulushi 74 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 54,3 foizgacha pasaygan. Bu jarayon bank xizmatlar bozoridagi davlat ishtirokini qisqartirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarning amaldagi ifodasidir.

Davlat ulushi mavjud banklardan farqli ravishda davlat ulushi mavjud bo'lmagan tijorat banklari o'zlarining bozordagi o'rinlarini yildan-yilga mustahkamlab bormoqda. Mazkur banklar tomonidan 2020-yilda yuridik shaxslar depozitlarining 26 foizini jalb etilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ulush 45,7 foizga yetdi. Bu o'sish bir tomondan xususiy banklarning mijozlarga moslashuvchan foiz siyosati yuritishi va xizmat ko'rsatish sifatiga alohida e'tibor qaratayotganini ko'rsatsa, boshqa tomondan esa raqamli texnologiyalardan samarali foydalanilayotgani bilan izohlanadi.

Yirik davlat banklari, jumladan, Milliy bank, Sanoatqurilishbank, Asaka bank, Agrobank va Xalq banklarining bozordagi ulushi hamon yuqori bo'lsada, ularning umumiy bozor ulushi 2020-yildagi 51,6 foizdan 2024-yilga kelib 40,4 foizgacha kamaygan. Shunga qaramasdan, Xalq bankining ulushi 2023-2024-yillar mobaynida biroz ortib 10 foizga yetgani bank tomonidan mobil

ilovalarni samarali joriy etilayotgshanligi, barqaror va yirik hajmdagi pul mablag'lariga ega bo'lgan yuridik shaxslarni jalb etish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalarni to'g'ri amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar ichida Kapitalbank, Hamkorbank, Ipak Yo'li bank, Oriyent Finans bank va Infinbank singari tijorat banklari aholi omonatlarini jalb qilishda barqaror o'sishga erishib kelmoqda. Jumladan, Kapitalbank 2021 va 2022-yillarda 8,2 foizlik ulush bilan yuqori pog'onalardagi mavqeini saqlab qolgan, 2024-yilda esa 7,8 foiz bilan davlat ulushi mavjud bo'lmagan eng yirik banklar qatorida qolgan. Shuningdek, Orient Finans bank va Ipak Yo'li bankning bozordagi ulushi 2024-yilda 4 foizgacha o'sgan, bu esa korporativ mijozlar uchun yo'lga qo'yilgan individual yondashuv, mahsulotlar diversifikatsiyasi va raqamli platformalarning samarali joriy etilayotganligi bilan bog'liq.

Davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning umumiy ulushi TOP-5 banklar doirasida 2020-yilda 12,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 20,8 foizgacha ortgan. Boshqa banklar ulushi esa 13,4 foizdan 24,9 foizgacha o'sgani yangi banklar, fintech tashkilotlar va raqamli banklar tomonidan korporativ segmentda ham samarali faoliyat olib borilayotganidan dalolat beradi.

3-jadval

Aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan tijorat banklarining depozit xizmatlari bozoridagi ulushi [10] (yil oxiriga)

Ko'rsatkichlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024
Aktivlari 3 trln. so'mgacha					
<i>banklar soni</i>	15	14	10	13	11
<i>depozit summasi, mlrd. so'm</i>	6895,8	7633,9	5714,5	6839,7	3064
<i>ulushi, foizda</i>	6,0	4,9	2,6	2,8	1,0
Aktivlari 3 trln. so'mdan 10 trln. so'mgacha					
<i>banklar soni</i>	8	7	7	8	7
<i>depozit summasi, mlrd. so'm</i>	31117,4	26947,8	30953,9	37835,8	23841,7
<i>ulushi, foizda</i>	27,1	17,3	14,3	15,7	7,7
Aktivlari 10 trln. so'mdan 30 trln. so'mgacha					
<i>banklar soni</i>	4	7	8	7	10
<i>depozit summasi, mlrd. so'm</i>	19860,5	48525,5	70033	54499,3	92052,1
<i>ulushi, foizda</i>	17,3	31,1	32,3	22,5	29,8

Aktivlari 30 trln. so'm va undan yuqori					
banklar soni	5	5	6	7	8
depozit summasi, mlrd. so'm	56873,2	73082,6	110036,1	142512,1	189734,4
ulushi, foizda	49,6	46,8	50,8	59,0	61,5
Jami					
banklar soni	32	33	31	35	36
Depozit summasi, mlrd. so'm	114746,9	156189,8	216737,5	241686,6	308692,3

Aktivlar miqdoriga qarab guruhlangan tijorat banklarining 2020-2024-yillar mobaynida jalb qilgan depozitlarining bozordagi ulushi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bank tizimida so'nggi yillarda resurslarning markazlashuvi ortib bo'ayotganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, aktivlari 30 trln. so'mdan yuqori bo'lgan yirik banklar sonining ortishi bilan birga ularning depozit xizmatlari bozorida ulushi ham o'sish tendensiyasini namoyon qilib, so'nggi besh yilda 49,6 foizdan 61,5 foizgacha ortgan. Ushbu o'sishga ta'sir qilgan asosiy omillar sifatida ulardagi raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, mijozlarga yaratilayotgan qulayliklar va ishonchni mustahkamlash borasidagi strategiyalarni keltirish mumkin. Shuningdek, ushbu guruhga kiruvchi banklarning aksariyati davlat ulushiga mansub banklar bo'lib, ularning aksariyati hukumat qo'llab-quvvatlashiga asoslangan. Ushbu segmentda jalb qilingan depozitlar miqdori so'nggi besh yilda uch barobardan ko'proq o'sib, 189,7 trln. so'mgacha ortganligi bank tizimi likvidligini ta'minlashda yirik banklarning roli yanada oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, aktivlari miqdori 10-30 trln. so'mgacha bo'lgan banklar ham o'z depozit bazasining sezilarli darajada kengaytirishga muvaffaq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur guruhga kiruvchi banklarning depozit xizmatlari bozorida ulushi 2020-yilda 17,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 29,8 foizgacha oshgan. Bunday ijobiy natijalarga asosan raqobatbardosh foiz stavkalari, mijozga yo'naltirilgan xizmatlar va depozit xizmat turlarini diversifikatsiya qilish orqali erishilgan. Ushbu segmentga kiruvchi

banklar sonining ko'payishi ham depozit xizmatlari bozorida faollikni ortib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 3-10 trln. so'mlik banklar ulushi sezilarli darajada pasayib, 27,1 foizdan 7,7 foizgacha tushganligi mazkur guruhdagi banklarning raqobatbardoshlik darajasining pasayayotganligini va yirik banklarning bozordagi nazorati ortib borayotganligidan dalolatdir.

Eng katta xavotirli holatlardan biri sifatida aktivlari 3 trln. so'mgacha bo'lgan kichik banklar ulushining 6 foizdan 1 foizga tushib ketishi hamda ular depozitlari miqdorining so'nggi 5 yilda 2,2 barobar kamayishidir. Bu holat kichik banklar infratuzilmasining zaifligi, xizmatlarni diversifikatsiya qilish darajasining pastligi, raqobatbardosh foiz siyosatini yuritishdagi imkoniyatlarining cheklanganligini bilan izohlanadi. Mazkur holatlar kelgusi yillarda depozit xizmatlari bozorida markazlashuvni yanada kuchayishiga, kichik va o'rta banklarning bozordan chiqib ketishi yoki yirik banklar tomonidan qo'shib olinishi kabi jarayonlarning faollashuviga olib kelishi mumkin. Bu esa moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning pasayishi va mijozlar uchun tanlov imkoniyatlarining cheklanishiga sabab bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Banklararo raqobat kuchayishi depozit siyosatidagi innovatsiyalar va mijozlar uchun qulayliklarni oshirishga sabab bo'lmoqda. Masalan, Yaponiya va AQSh banklarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, dinamik depozit siyosati va foiz stavkalarini targ'ibot qilish orqali banklar o'z resurs bazasini kengaytirib, moliyaviy barqarorlikka erishmoqda. Bugungi

kunda ko'pgina tijorat banklari depozit strategiyalarida behavioural economics tamoyillaridan foydalanish orqali mijozlarning moliyaviy qarorlariga ta'sir o'tkazishni maqsad qilmoqda. Tijorat banklari depozit bazasini barqarorlashtirish va uning rentabelligini oshirish uchun quyidagi strategik chora-tadbirlarni ko'rishlari tavsia etiladi.

Mijozlarning segmentatsiyasidan kelib chiqib moslashuvchan depozit mahsulotlarini

ishlab chiqish, depozitlarning muddati va stavkasini bozor kon'yunkturasiga qarab belgilash;

Raqamli texnologiyalarni joriy etish – mobil banking va raqamli omonat platformalarini takomillashtirish;

Foiz stavkalariga targ'ibot siyosati orqali ta'sir o'tkazish, raqobatbardosh depozit stavkalari taklif qilish va bank brendini raqobatbardoshligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rawls, J. *A theory of justice*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1971. – 607 p.
2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. В 2 т. М.: Наука, 1993. 570 с.
3. Юданов А.Ю. Конкуренция: теория и практика: Учеб. – практ. пособие. 3-е изд., испр. и доп. – М.: Казаков: Гном и Д, 2001. – 29-30 с.
4. Mirzayev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari. *Iqtisod fanlari doktori... diss. avtoreferati*. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2009. – 41 b.
5. M.I. Arifxodjayeva. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida raqobat va uni rivojlanishida innovatsion texnologiyalarning o'rni. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016-yil.
6. S.Sh. Yuldasheva. O'zbekistonda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirishning shart-sharoitlari. *Iqtisodiyot va ta'lim* / 2022-yil 5-son.
7. Е.М. Жух, А. П. Панкрухин, В. А. Соловев. *Маркетинг: как завоевать рынок?* – Л.: Лениздат, 1991.-47-с.
8. <https://platina.uz/2025/03/12/>
9. Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.
10. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari.